

Date: 3rd April-2026

O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN
FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARI

Ergashev Alijon Hojimatovich
PhD, dotsent, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni huquqiy, moliyaviy va institutsional jihatdan rag‘batlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ishda mamlakatning normativ-huquqiy bazasi, davlat dasturlari, soliq va investitsiya imtiyozlari, shuningdek, xalqaro tajribaga asoslangan ilg‘or mexanizmlar o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Аннотация. В данном исследовании анализируются правовые, финансовые и институциональные механизмы стимулирования использования возобновляемых источников энергии в Республике Узбекистан. Рассматриваются национальная нормативно-правовая база, государственные программы, налоговые и инвестиционные льготы, а также лучшие международные практики. Результаты исследования предоставляют практические рекомендации по совершенствованию стратегии развития возобновляемой энергетики и обеспечению экологической устойчивости.

Annotation. This study analyzes the legal, financial, and institutional mechanisms for promoting the use of renewable energy sources in the Republic of Uzbekistan. It examines the national regulatory framework, government programs, tax and investment incentives, as well as best practices based on international experience. The results provide practical recommendations for improving renewable energy development strategies and ensuring environmental sustainability.

Kalit so‘zlar: qayta tiklanuvchi energiya, rag‘batlantirish mexanizmlari, huquqiy tartibga solish, investitsiya imtiyozlari, ekologik barqarorlik

Ключевые слова: возобновляемая энергия, механизмы стимулирования, правовое регулирование, инвестиционные льготы, экологическая устойчивость

Keywords: renewable energy, promotion mechanisms, legal regulation, investment incentives, environmental sustainability

Butun dunyo bo‘yicha elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiyaning ulushi ortib bormoqda. Bunga mamlakatlarning iqlim o‘zgarishiga qarshi majburiyatlari, qayta tiklanadigan energiyaning ekologik afzalliklari va ishlab chiqarish hajmining kengayishi, shuningdek, quyosh va shamol energiyasining arzonlashishi sabab bo‘lmoqda. Natijada, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish jarayoni tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining, jumladan, quyosh, shamol va gidroenergetika sohaslarining keng joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va



Date: 3rd April-2026



barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu energiya manbalari issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, atmosferani toza saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Shu bois, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning ilmiy, iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini o'rganish hamda ularni samarali tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. XXI asrda iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi va atrof-muhit ifloslanishi ekologik xavfsizlikni global muammo darajasiga olib chiqmoqda; aholining o'sishi, texnologik taraqqiyot va tabiiy resurslardan keng foydalanish tabiatga zarar yetkazmoqda.

Dunyo davlatlari aholining tez o'sishi fonida oziq-ovqat, xomashyo va energiya ta'minotini barqaror qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Pandemiya, xalqaro savdo nizolari va geosiyosiy beqarorlik sharoitida bu masala rivojlanayotgan va ayrim rivojlangan mamlakatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Energiya ta'minoti barqaror, tejankor va ekologik xavfsiz tizim asosida amalga oshirilishi zarur, chunki global energetika balansida ko'mir, neft, tabiiy gaz va uran kabi cheklangan resurslar ustunlik qiladi va ularning uzluksiz ishlatilishi ekologik hamda geosiyosiy xavflarni oshiradi.

Global energetika tizimidagi cheklovlar tufayli an'anaviy manbalardan to'liq voz kechish qiyin bo'lib, "yashil energiya" va qayta tiklanuvchi manbalarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasida energiya bozorini liberallashtirish, ijtimoiy himoyani mustahkamlash va xususiy investitsiyalarni jalb etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Quyosh, shamol, geotermal, suv oqimlari va biomassa manbalari ekologik xavfsiz va uzluksiz yangilanadi, shuning uchun ular "yashil energiya" sifatida inson hayoti va iqtisodiy faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirda asosiy energiya manbai tabiiy gaz va ko'mir bo'lsa-da, ularni ekologik toza manbalar bilan bosqichma-bosqich almashtirish ishlari olib borilmoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4000 dollardan oshirish orqali O'zbekistonni o'rtacha daromadli davlatlar qatoriga olib chiqish maqsadi qo'yilgan. "Shuningdek, strategiyada makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy o'sishni energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan samarali ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvatini 25 ming MVt gacha yetkazish hamda ularning energetika tizimidagi ulushini 40 foizga oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan" [2].

So'nggi sakkiz yil ichida mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 38 foizga oshib, 81,5 milliard kilovatt-soatga yetdi. Xususan, xususiy sektor uchun yaratilgan imkoniyatlar hisobiga umumiy quvvati 11,2 gigavatt bo'lgan yangi generatsiya quvvatlari ishga tushirildi. Natijada elektr energiyasi ishlab chiqarishda xususiy sektorning ulushi 24 foizga, "yashil" energiya manbalarining ulushi esa 16 foizga yetdi. Mazkur davr mobaynida aholining daromadlari 1,6 barobarga oshgani natijasida maishiy elektr jihozlaridan foydalanish keskin ortdi, bu esa uy xo'jaliklarida elektr energiyasi iste'molining 21 milliard kilovatt-soatga ko'payishiga olib keldi - bu 2016-yilga nisbatan ikki baravar ko'pdir.

Date: 3rd April-2026

2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida 2030-yilga kelib mamlakat aholisining soni 41 million kishiga yetishi va iqtisodiyot hajmining 1,5 baravarga ortishi prognoz qilinmoqda. Natijada sanoat tarmog‘ida 45 milliard dollarlik qo‘shimcha yalpi qo‘shilgan qiymat yaratilishi, xizmatlar sohasi hajmi uch barobarga oshishi, shuningdek, yirik ma‘lumot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan. Bu kabi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash uchun barqaror va samarali elektr ta‘minoti muhim ahamiyat kasb etadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilda mamlakatda elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj 117 milliard kilovatt-soatga, 2035-yilda esa 135 milliard kilovatt-soatga yetadi. Bu esa hozirgi darajaga nisbatan 1,7 baravar ko‘pdir.

Tahlillarimizga ko‘ra, O‘zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi jihatidan Markaziy Osiyo davlatlari orasida muhim o‘rinni egallab, Rossiya, Ukraina va Qozog‘istondan keyingi to‘rtinchi pog‘onada joylashgan. Shu bilan birga, mamlakat mintaqaning umumiy energetika tizimida mavjud o‘rnatilgan quvvatlarning qariyb yarmiga yaqinini, ya‘ni 50 foizini o‘zida mujassamlashtirgan. Bu holat O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda energetika sohasidagi strategik ahamiyatini, shuningdek, mintaqaviy energiya xavfsizligini ta‘minlashdagi yetakchi rolini yaqqol namoyon etadi.

2025-yil 6-iyul holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda muqobil elektr energiyasi hajmi 5 milliard kilovatt-soatni tashkil etganligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligidan dalolat beradi. Hisob-kitoblarimizga ko‘ra, yil boshidan buyon har kuni o‘rtacha 26,7 million kilovatt-soat elektr energiyasi aynan quyosh va shamol manbalaridan olinayapti. Bu ko‘rsatkich mamlakat energiya sohasida “yashil” texnologiyalar ulushi barqarorlashayotgani, shuningdek, mamlakatning energiya mustaqilligi va ekologik xavfsizligi mustahkamlanayotganligini anglatadi.

Kuzatishlarimiz O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanyotganligini hamda aholining turmush darajasi yildan-yilga yaxshilanayotganini ko‘rsatadi. 2017-2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar izchil o‘shib borgan. Jadvaldagi ma‘lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 7032,6 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 21991,9 ming so‘mga yetgan. Demak, yetti yil ichida aholining real daromadlari qariyb uch baravardan ortiq o‘sgan. 2018-yilda 2017-yilga nisbatan 15 foizga yaqin, 2019-yilda esa 22,5 foiz atrofida o‘shish kuzatilgan. 2020-yilda iqtisodiy pandemiya sharoitiga qaramay, real daromadlar 11 ming so‘mdan oshib, 12 foiz atrofida o‘shishni saqlab qolgan. 2021-2024-yillar oralig‘ida esa iqtisodiyotdagi barqarorlik va islohotlar natijasida o‘shish sur‘atlari yanada tezlashgan: 2021-yilda 13914,7 ming so‘m, 2022-yilda 16487,7 ming so‘m, 2023-yilda 18881,9 ming so‘m, 2024-yilda esa 21991,9 ming so‘mni tashkil etgan. [4]

O‘zbekiston Energetika vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, bugungi kunga kelib mamlakatning 10 ta hududida jami 11 ta quyosh fotoelektr stansiyasi va 4 ta shamol elektr stansiyasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu “yashil energetika” obyektlarining umumiy o‘rnatilgan quvvati 4119 megavattni tashkil etadi. Shundan, 3,125 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi quyosh stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1,915 milliard kilovatt-soat hajmidagi energiya shamol stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur qayta



Date: 3rd April-2026

tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish natijasida 1,515 milliard kub metr tabiiy gaz tejalgan hamda 2,22 million tonnadan ortiq zararli moddalarning atmosferaga chiqarilishi oldi olingan. Bu esa mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya xavfsizligini mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanish yo'lidagi muhim natijalardan biri hisoblanadi [1].

2022-yil 9-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-220-sonli Farmoni [3]ni tahlil qilganimizda, mazkur hujjat "energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan"ligiga guvoh bo'ldik. Hujjatda aholining va tadbirkorlik subyektlarining muqobil energiya manbalaridan foydalanishini oshirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari aksini topgan. Masalan, xususiy va ma'muriy-maishiy obyektlarni quyosh yoki shamol elektr stantsiyalari bilan ta'minlaganlik uchun, shuningdek quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatganlik uchun kompensatsiyalar miqdori aniqlangan. Shuningdek, xususiy investorlarga quvvati 500 KVTgacha bo'lgan mikro gidroelektrostantsiyalarni qurishga imtiyozlar berilishi belgilangan. Qolaversa, quyosh va shamol elektr stantsiyalari hamda kichik gidroelektrostantsiya qurilmalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar 3 yil muddatga foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan stavkalarining yarmini to'lash imkoniyatiga ega.

Muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishda yangi quriladigan yoki rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan barcha obyektlarda hamda "Yangi O'zbekiston" qurilish loyihalarida issiq suv ehtiyojining kamida 25 foizi quyosh isitish qurilmalari orqali qoplanishi majburiy talab qilinadi. Masalan, 100 o'rinli bog'chada kuniga o'rtacha 1150 litr issiq suv iste'mol qilinadi, buning 25 foizi ya'ni 300 litr quyosh suv isitish qurilmalari orqali ta'minlansa, ikki dona 300 litrlik quyosh isitish uskunalari o'rnatilishi kerak. Bunday qurilmalarning o'rnatish va uskuna xarajatlari taxminan 13,5 mln so'mni tashkil etadi. Ushbu sarf-xarajatlarning to'liq qaytishi esa taxminan 3,8 yilni tashkil etib, bu borada iqtisodiy samaradorlikni ko'rsatadi.

Energetika vazirligi huzurida Byudjetdan tashqari tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi tashkil etilib, unda mablag'larni shakllantirish, taqsimlash va boshqarish tartibi belgilangan. Jamg'arma energiya tejavchi va qayta tiklanuvchi texnologiyalarni moddiy qo'llab-quvvatlash orqali joriy etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida "Xalqaro quyosh energiyasi instituti" milliy ilmiy-tadqiqot instituti sifatida faoliyat yuritadi; unda Vodorod energetikasi markazi va qayta tiklanuvchi hamda vodorod texnologiyalarini sinash va sertifikatlash laboratoriyalari mavjud. Ushbu ilmiy markazlar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirishda ilmiy-texnik asos yaratadi.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni kengaytirish strategiyasi doirasida nafaqat energiya ishlab chiqarishga, balki ushbu tizimga xizmat qiluvchi uskunalarni mahalliy sharoitda ishlab chiqarishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Solar Cluster" sanoat klasteri doirasida umumiy qiymati 28,2 million AQSh dollariga teng bo'lgan 6 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar to'liq ishga tushirilgandan so'ng, yiliga 470 MVt quyosh



Date: 3rd April-2026

panellari, 30 MVt invertorlar va 15 ming dona quyosh isitish uskunalari mahalliy ravishda ishlab chiqarish imkoni paydo bo'ladi. Bu esa bozordagi talabni to'liq qoplash, eksport salohiyatini rivojlantirish va mahalliy mahsulotlar hisobiga ichki bozorni to'yintirishga xizmat qiladi.

Elektr energiyasi tannarxini kamaytirish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bu borada muqobil energiya manbalarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Masalan, issiqlik elektr stansiyalarida 1 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi 5-6 sentni tashkil etsa, quyosh va shamol elektr stansiyalarida bu ko'rsatkich o'rtacha 3 sentga teng. Xorijiy ekspertlar O'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini alohida qayd etmoqdalar.

Shunga muvofiq, 2030-yilga kelib mamlakatda "yashil" energiya ulushini umumiy generatsiyada 50 foizdan oshirish maqsad qilingan. Jumladan, umumiy quvvati 164 megavatt bo'lgan 3 mingta mikro GES, shuningdek, 750 megavattli kichik quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda resurslarni tejaydigan iqtisodiyot modeliga o'tish vaqti yetdi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish orqali yalpi ichki mahsulotni 27 foizga ko'paytirish mumkin. Hozirgi kunda ayrim mahalliy kimyo va metallurgiya korxonalarida energiya sarfi jahon o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan 2 baravar, sement ishlab chiqarishda esa 1,2 baravar yuqoridir. Shu bois har bir sohada elektr energiyasi iste'molini 10-15 foizga tejash va 2030-yilga borib elektr energiyasi yo'qotishlarini amaldagi 14 foizdan 8-9 foizgacha kamaytirish lozim. Bundan tashqari, davlat tashkilotlari, mahalliy hokimiyatlar va yirik sanoat subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya uskunalari xarid qilish va loyihalashtirish jarayonida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishtirokini ta'minlash maqsadida "fyuchers" shartnomalar tizimi joriy etilgan. Bu shartnomalar oldindan to'lov talab qilmasdan, elektron davlat xaridlari platformasi orqali amalga oshiriladi.

Qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini aholi orasida keng joriy etish maqsadida moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham shakllantirilgan. Jumladan, Energetika vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi orqali jismoniy shaxslarga quyosh va shamol energiya uskunalari 3 yil muddatga foizsiz, bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, uskunani to'liq xarid qilgan iste'molchilarga xaridning bir qismi kompensatsiya qilinadi. Bu jarayon onlayn platforma - marketplace orqali avtomatlashtirilgan va barcha to'lovlar monitoring asosida yuritiladi.

Quyosh, shamol va biogaz stantsiyalarida (quvvati 1 MVt gacha) ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasi davlat tomonidan 10 yil kafolat bilan sotib olinadi; tarif II guruh iste'molchilar narxining 80 foiziga teng. Bu siyosat xususiy sarmoyadorlar uchun ishonchli daromad manbai yaratadi va aholi orasida qayta tiklanuvchi energiyaga qiziqishni oshiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari past foizli, 5 yillik kreditlar orqali "yashil energetika" uskunalari xarid qilishni qo'llab-quvvatlamogda, bu esa muqobil energiyaga o'tishni osonlashtiradi hamda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.



Date: 3rd April-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida. 21.05.2019 yil, O‘RQ-539-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida. 11.09.2023 yil, PF-158-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 09.09.2022 yil, PF-220-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

